



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY  
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION  
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ  
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ  
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF  
ABU RAYHAN BERUNI  
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,  
AND ECONOMY IN THE FIELD OF  
CONSTRUCTION AND  
ARCHITECTURE”  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
1-TO'PLAMI



## **TASHKILIY QO‘MITASI:**

### **RAIS:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,  
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

### **HAMRAISLAR:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik  
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti  
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi  
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch  
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

### **ILMIY KOTIB:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”  
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

## **TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari  
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod  
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”  
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”  
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

### **ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:**

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Transport sohasidagi hisobot, 2023.
2. Сидоров А. История формирования транспортных колец Москвы. – Москва: Наука, 2015.
3. Hall P. Cities of Tomorrow. – Wiley-Blackwell, 2014.
4. Batty M. The New Science of Cities. – MIT Press, 2013.
5. Xorazm viloyati hokimligi. Urganch shahar transport tizimi bo'yicha hisobot, 2022.
6. Goodchild M. Geographic Information Systems and Science. – Wiley, 2005.
7. Rodrigue J.-P. The Geography of Transport Systems. – Routledge, 2020.
8. Urganch shahar IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi. Transport harakati statistikasi, 2022.
9. Ministry of Construction of Uzbekistan. Urban Transport Report. – Tashkent, 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya qo'mitasi. Atmosfera havosining ifloslanishi bo'yicha hisobot, 2022.
11. Toshkent shahar transport boshqarmasi. Katta halqa yo'li bo'yicha loyiha hujjatlari, 2019.
12. Banister D. Transport and Urban Development. – Routledge, 2002.

## **QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA SIRKULIYAR IQTISODIYOT MODELLARINI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI**

Utegenov Ilham Baxtiyarovich

Qoraqalpoq davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Maqolada qurilish materiallari sanoatida sirkuliyar iqtisodiyot modellarini joriy etish zarurligi va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejankor texnologiyalarni

qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ekologik barqarorlikka erishish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Bundan tashqari, sohada milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

### **Kalit so'zlar**

Sirkulyar iqtisodiyot, qurilish sanoati, resurs tejamkorlik, chiqindilarni qayta ishlash, barqaror rivojlanish.

### **Kirish**

Globalashuv va tezkor texnologik transformatsiyalashuv sharoitida qurilish materiallari sanoati korxonalaridan barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun yangi yondashuvlarni izlashni talab etmoqda. Shunday yondashuvlardan biri yopiq ishlab chiqarish sikllari, resurslardan qayta foydalanish va chiqindilarni kamaytirishga asoslangan sirkulyar iqtisodiyot modellari hisoblanadi. Qurilish materiallari sanoati korxonalari uchun sirkulyar iqtisodiyot modellarini shakllantirish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik zaruratga aylanmoqda. Chunki bu sohada tabiiy resurslar keng miqyosda sarflanadi va ko'p miqdorda qurilish chiqindilari hosil bo'ladi.

So'nggi yillarda sirkulyar iqtisodiyot barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Qurilish materiallari sanoatida resurslardan tejamli foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash milliy iqtisodiyot uchun dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477 son "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorida ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tahlillarga ko'ra, "sirkulyar iqtisodiyot" atamasi ilmiy doiralarda nisbatan yangi tushuncha hisoblanib, ushbu atamaga olimlar tomonidan berilgan aniq, umume'tirof etilgan yagona ta'rif mavjud emas. Quyida mazkur atamaga berilgan b'zi ta'riflarni ko'rib chiqamiz:

J.Endryusga ko'ra "Sirkulyar iqtisodiyot - bu chiqindilarni yo'q qilishga va resurslardan uzluksiz foydalanishni bartaraf etishga intiladigan iqtisodiy tizimdir. Bu



maqsadga resurslarni qayta ishlatish, ta'mirlash, modernizatsiya qilish va qayta ishlash orqali erishiladi, natijada yopiq aylanma sikllar yaratiladi" [1].

V.Dorofeevga ko'ra "Sirkulyar iqtisodiyot - bu materiallar va mahsulotlarni ko'p marta ishlatishni nazarda tutuvchi ishlab chiqarish va iste'mol modelidir. Bu model chiqindilarni maksimal darajada kamaytirishga qaratilgan. Asosiy g'oya - utilitatsiya qilish emas, balki hayot siklining har bir bosqichida qiymat yaratishdir" [2].

A.Morozova esa "Sirkulyar iqtisodiyot - bu resurslarni boshqarishga innovatsion yondashuv bo'lib, u an'anaviy chiziqli modeldan mahsulot, komponentlar va materiallarning qiymati imkon qadar uzoqroq saqlanadigan yopiq siklli modelga o'tishga qaratilgan" deb ta'kidlaydi. [3].

R. Raifga ko'ra "Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat qayta ishlash, balki uzoq muddat xizmat qiladigan, oson ta'mirlanadigan va qayta ishlatilishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni yaratishga qaratilgan modeldir" [4].

D.Karimov esa "Sirkulyar iqtisodiyot - bu korxonalarga birlamchi resurslarga qaramlikni minimallashtirish, salbiy ekologik oqibatlarni kamaytirish va qayta ishlash hamda takroriy foydalanishga asoslangan yangi biznes modellarini yaratish imkonini beruvchi barqaror rivojlanishga erishish vositasidir" deb ta'kidlaydi [5].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ilmiy maqolani yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, tizimli yondashuv, analiz va sintez usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, sirkulyar iqtisodiyot — bu chiziqli iqtisodiyot modeliga muqobil yondashuv bo'lib, unda "ishlab chiqarish - foydalanish – utilitatsiya" zanjiri o'rniga, resurslarning imkon qadar uzoq vaqt iqtisodiy aylanmada qolishini ta'minlaydigan yopiq tizim yaratishga qaratilgan. Asosiy maqsad — chiqindilarni minimallashtirish va resurslar samaradorligini oshirishdir. Bu modelning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

chiqindilarni va ifloslanishlarni loyihalash bosqichidayoq bartaraf etish;

mahsulotlar va materiallarni imkon qadar uzoq muddat ishlab turishini ta'minlash;

tabiiy tizimlarni tiklash.

Aytish mumkinki, O'zbekiston va, xususan, Qoraqalpog'iston qurilish sanoatida chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash uchun infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, innovatsion texnologiyalarga investitsiyalarning cheklanganligi sirkulyar iqtisodiyot integratsiyalashuviga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida sirkulyar iqtisodiyotni shakllantirish ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlari va mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Qurilish materiallari korxonalarining hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga o'tish barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Energiya resurslari va xomashyo narxlarining o'sishi, shuningdek, ekologik talablarning kuchayishi sharoitida sirkulyar iqtisodiyot modellarini joriy etish iqtisodiy va ekologik muammolarni kompleks hal qilishni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

*Birinchidan*, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qurilish chiqindilaridan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish mahsulot tannarxini 10-15% ga kamaytirishi mumkin. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish chiqindilarini texnologik siklga qaytarish, xomashyoni qazib olish va tashish xarajatlarini kamaytiradigan sement va g'isht zavodlari uchun dolzarbdir.

*Ikkinchidan*, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va resurslardan qayta foydalanish bir qator MDH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari korxonalariga karbonat angidrid chiqindilarini 8-12% ga kamaytirish imkonini berdi [6]. O'zbekiston uchun bu ko'rsatkich qurilish sohasining jadal rivojlanishi hamda sement va betonga bo'lgan talabning o'sishini hisobga olgan holda yanada yuqori bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, qurilish materiallari korxonalarini boshqarishda sirkulyar iqtisodiyotning integratsiyalashuvi ularning

ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ishlab chiqarishning yopiq sikllaridan foydalanish qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan va xalqaro ekologik standartlarga javob beradigan mahsulotlarni eksport qilish uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, olingan natijalar qurilish materiallari sanoati korxonalarida sirkulyar iqtisodiyotni shakllantirish nafaqat resurs va energiya xarajatlarini kamaytiradi, balki sohani ekologik barqaror rivojlantirishga zamin yaratishini ko'rsatdi.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, qurilish materiallari sanoatida sirkulyar iqtisodiyot modeli resurs samaradorligini va ekologik barqarorlikni oshirishning strategik yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston korxonalari uchun sirkulyar iqtisodiyotga o'tish eksport salohiyatini oshirish va import xom ashyoga qaramlikni kamaytirish imkonini beradi.

Bunda, davlat tomonidan qurilish chiqindilarini qayta ishlash uchun rag'batlar yaratish, ekologik standartlarni joriy etish va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish juda muhimdir. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy ishlanmalari va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish muhim shart hisoblanadi.

Sirkulyar iqtisodiyot modelini qurilish materiallari sanoatida joriy etish resurs tejamkorlikni ta'minlaydi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va ekologik barqarorlikni kafolatlaydi. Milliy va xalqaro tajribalar uyg'unligi asosida ishlab chiqilgan boshqaruv mexanizmlari tarmoqning innovatsion rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. J.Andrews. The Circular Economy: A New Business Model for Sustainability. Routledge. 2021.
2. В.А.Дорофеев . Циркулярная экономика: от теории к практике. Москва: Инфра-М. 2020
3. А.В.Морозова. Основы циркулярной экономики: учебное пособие. Санкт-Петербург: Изд-во Политехнического ун-та. 2019.



4. R.Raif. Rethinking Design: The Principles of the Circular Economy. Springer. 2022.
5. Каримов, Д. М. Циркулярная экономика в странах Центральной Азии: вызовы и возможности. Ташкент. 2021
6. [www.eurostat.com](http://www.eurostat.com). Waste statistics – construction and demolition waste. 2021.

## **XORAZM VILOYATIDA TURIZM MASTER REJALARINI ISHLAB CHIQISHDA ME'MORIY YODGORLIK LARNING ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI ARXITEKTURA-LOYIHALASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH. (BOG'OT TUMANIDAGI QALAJIQQAL'A MISOLIDA)**

Xudayberganov Bekzod Allaberganovich

Xorazm Ma'mun akademiyasi. Kichik ilmiy hodimi

### **Annotatsiya**

Bugungi kunda turizm sohasining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, tarixiy-me'moriy meros obyektlarini saqlab qolish, ulardan foydalanish va yangi loyihalarda ularning elementlarini integratsiyalash muhim masalaga aylangan. Turizm master rejalarini ishlab chiqishda arxitektura va madaniyatning uyg'unligi – shahar muhitining jozibadorligini oshiradi, turizm salohiyatini kuchaytiradi va merosni ommalashtirishga xizmat qiladi. Bundan kelib chiqib master rejaga quyidagicha maqsadlarni belgilashimiz zarur. Turizm master rejalarida me'moriy yodgorliklarning kompozitsion, badiiy va funksional elementlaridan foydalanish orqali arxitektura-loyihalash jarayonlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy talablar asosida qayta ishlash va turizm uchun barqaror makon yaratish.

### **Kalit so'zlar**

Master reja, me'moriy yodgorliklar, investitsiya va infratuzilma loyihalar, aholi punktlarining funksional zonalari, shamol guli, iqlimiy ko'rsatkichlar, turizm obyektlarini loyihalash.

### **Kirish**

Master rejaga qo'yiladigan talablar

1. Hududning joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati bo'yicha tahlil.